

## “ALPOMISH” DOSTONINI O’RGANISH BOSQICHLARI, METODLARI HAMDA KUYLASH ETOSI

Sharipova Maxbuba Baxshilloyevna

Buxoro davlat universiteti  
Maktabgacha ta’lim kafedrasи o’qituvchisi

**Аннотация:** Ushbu maqolada “Alpomish” dostonini o’rganish bosqichlari, metodlari hamda kuylash etosi, marosimlarning ijtimoiy hayotdagi o’rni haqida fikrmulohaza bildirilgan.

**Калит сўзлар:** “Alpomish” dostoni, folklor, marosim, ritual, to’y marosimi, motiv, obraz, epos va etos, metod, o’rganish bosqichlari.

**Аннотация:** В данной статье рассматриваются этапы, методы изучения саги «Алпомыш», и этоса пения, роль обрядов в общественной жизни.

**Ключевые слова:** эпос «Алпомыш», фольклор, обряд, обряд, свадебный обряд, мотив, образ, эпос и этос, метод, этапы обучения.

**Abstarct:** This article discusses the stages, methods of studying the Alpomysh saga, and the ethos of singing, the role of rituals in public life.

**Key words:** Alpomish epos, folklore, rite, rite, wedding rite, motif, image, epic and ethos, method, learning stages.

Hozirgacha “Alpomish” dostoni rus, nemis, ingliz, turk kabi dunyoning bir necha tillariga tarjima bo’lgani ma’lum. “Alpomish” dostonidan 832 qatorni Oksford universiteti doktori, amerikalik olim Hasan Paksoy 1989-yilda ingliz tiliga o’girgan bo’lsa, S.Baura ham V.M.Jirmunskiy va H.T.Zarifovlar asaridagi qiyoslashlardan qator misollarni tanlab olib, tarjima qilgan.

198 -yilda “Alpomish”ning rus tiliga tarjimasi T.Mirzaev so’zboshisi bilan L.Penkovskiyning to’la tarjimasi asosida “Shoir kutubxonasi” ruknida Leningradda (hozirgi Sankt-Peterburgda) bosilib chiqdi. Bu nashr yevropaliklar orasida alohida e’tibor qozongach, To’ra Mirzaevning unga yozgan so’zboshisi Germaniyaning Boxum universiteti tomonidan muntazam chop qilinib kelinayotgan “Turkologiya materiallari” to’plamining 9-jildida nemis tilida bosildi. 1996-yilda esa u nashrga tayyorlagan Berdi baxshining “Alpomish” dostoniga ilova shaklida “Alpomish” dostonining o’zbek variantlari” monografiyasining Karl Rayxl amalga oshirgan nemischa bayoni Bonnda e’lon qilindi. U o’z tarjimasini “Alpomish” dostonining Saidmurod Panoh o’g’li kuylagan varianti asosida amalgaga oshirganini aytgan.

Karl Rayxl “Alpomish” dostoni bo'yicha olib borgan tadqiqotlarida ko'proq undagi turkiy xalqlar ertak va dostonlari bilan uyqash keladigan o'rnlarga ahamiyat qaratgani ko'rinadi. Haqiqatan ham, bu jihatdan dostondagi quyidagi jihatlar e'tiborni tortadi:

1. Elchi yuborish motivi. Boybo'rining Boysari elatiga zakot masalasida elchi yuborishi. Bundan g'azablangan Boysari elchilardan ayrimlarining qulq-burnini kessa, boshqalarini sharmandali o'limga duchor etadi.

2. Eldan begona yurtga ko'chish motivi. Aka-ukalarning kichigi Boysari g'azab otiga minib, o'z odamlarini olib, begona Qalmiq eliga ketadi. Bunga Boybo'rining o'z ukasi Boysaridan zakot so'rashi sabab bo'ladi.

3. Qiz va yigitning bir-biriga sevgisi, unga yaqinlarining qarshiligi yoki ijobiy munosabati motivi. "Alpomish"da bosh qahramon Alpomishning dastlab Barchinga ko'ngli yo'qligi, ammo ular yoshlidan bir-biriga unashtirib qo'yilgani uchun g'ururiga itoat etishi kerakligi bildiriladi. U Barchinga uylanishi uchun keyinchalik otasi qarshi bo'lsa-da, singlisining g'ururiga tegib, "narmoda" so'zini qo'llashi sabab yorini qutqarib, yurtiga olib kelishi uchun safarga otlanadi.

4. Kuyov bo'ladigan yigitning ijtimoiy kelib chiqishi. Dostonlarda ko'pincha uning shahzodaligi aytilsa, ertaklarda ko'pincha uning kambag'alligiga urg'u qaratiladi. Shu jihatdan qaralsa, Alpomish ham shahzoda. U shoh Boybo'rining yolg'iz merosxo'ri. Ammo O.Madaev fikricha, dostonda "shoy" so'zi "shoh"ni emas, el orasida katta obro'ga ega bo'lgan nufuzli odam tushunchasini anglatadi.

5. Kuyov bo'lmish yigitning qaylig'i o'ylab topgan vazifalar (shartlar)ni bajarishi. Bunda qaylig'ining "majburlab nikohlanish tahlikasi"dan cho'chib, Alpomishga o'z elchilarini yuborishi va uning kelishiga ishonib, astoydil kutishi, ammo qahramon borishni xohlamaganda, qahramonni singlisi yangasiga yordam berishi shartligini aytib ko'ndirishi va qat'iy da'vat qilishi, shundan so'ng Alpomishning qalmiqlar yurtiga ketishga rozi bo'lib, yo'lga otlanishi, shu asosda uning yurtini va uyini tark etishi, o'zga yurtda o'z raqiblari bilan bevosita jangga kirishi va g'alaba qilishi, yorini yurtiga olib qaytishi, uyiga kelib u bilan nikohdan o'tishi, farzandli bo'lishi birma-bir bayon etiladi.

6. Kuyov bo'lmishning oldida paydo bo'lgan to'siqlarni yengib o'tishi, belgilangan shartlarni jasorat bilan uddalashi. Belgilangan shartlarni bajarishda "kuyov"ning qalmiqlar xonining va devsifat ulkan, kuchli botirlarining ustidan g'alaba qilishi, kelinning qo'lini so'ragan bu talabgorlarning barini musobaqalarda yengishi dostondag'i alohida motivlardan biridir.

7. Sevishganlarning birlashishi: to'y bo'lib o'tishi dostonning ikki o'rnida ko'rsatilgan. "Alpomish" dostonida ikkita to'y motivi keltirilgan:

1. Farzand to'yi.

2. Alpomish va Barchinoyning nikoh to'yi.

Folklorshunos Sh.Turdimov "Alpomish" dostonidagi birinchi "to'y" motivini "Yer munojoti va Ko'k inoyati birlashdi", ikkinchisini esa "Ungan urug' Ko'k va Yer ardog'ida" deb izohlagan.

8. Yangi kuyovning paydo bo'lishi. Bu, albatta, kelinga ham, uning yaqinlariga ham yoqmaydi. Yana uning kelin yaqinlariga xavfliligi ham dostondag'i harakatlarni jadallashtiruvchi motivlardan biridir. Alpomish dostonida Ultontoz yangi kuyov obrazida keltirilgan.

9. Turmush o'rtog'ining ikkinchi marta turmushga chiqayotgani motivi qahramonning uyg'a o'z vaqtida qaytishi bilan bog'lanadi.

10. Kuyov-qahramonning o'z sevgilisi (rafiqasi) to'yida shoshilinch, ammo o'z vaqtida paydo bo'lishi. Bunda u kuch-qudrati, jasorati bilan o'z mahbubasiga loyiqligini isbotlab uylanishi motivi mazmunan bir-biriga ulanib ketadi.

Xuddi shu motivlar ertaklardagi kabi dostonlarda ham muayyan syujetli model bo'lishini dalillashga xizmat qila oladi va dostonlar morfologiyasida motivlarning joylashish tartibi haqida tasavvur-tushuncha uyg'otadi.

Xulosa shuki, barcha xalq dostonlari qatori "Alpomish" dostonida ham eposning syujetli modeli namoyon bo'ladi. U ham boshqa xalq dostonlari kabi syujetli modelga ega.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Sharipova M. ЭПОСА" АЛПОМИШ"-ИСТОЧНИК НАРОДНОГО ВОСПИТАНИЯ, ВЕДУЩИЙ ПОКОЛЕНИЕ К СОВЕРШЕНСТВУ //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu.uz). – 2022. – Т. 12. – №. 12.

2. Sharipova M. B., Muslimova L. M. Q. XALQ DOSTONLARINI O'RGATISHNING AMALIY AHAMIYATI HAMDA DOLZARBLIGI ("ALPOMISH" DOSTONI MISOLIDA) //Scientific progress. – 2021. – Т. 2. – №. 7. – С. 1130-1134.

3. Sharipova M. B. Xursand Nuriddinovna Mirzayeva XALQIMIZ MADANIYATINING HAYOTBAXSH SARCHASHMASI //Scientific progress. – 2021. – №. 7.

4. Sharipova M. B. Gulshoda Fazliddin Qizi Ravshanova QAHRAMONLIK DOSTONLARINING O'ZIGA XOSLIGI: MILLIY RUH VA AN'ANALAR //Scientific progress. – 2021. – №. 7.

5. Шарипова М.Б., Нематова Ш.Н. ФОРМИРОВАНИЕ ЭСТЕТИЧЕСКОЙ КУЛЬТУРЫ ВОСПИТАНИКОВ ДОШКОЛЬНЫХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ УЧРЕЖДЕНИЙ // Вестник магистратуры. 2020. №3-3 (102). URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/formirovanie-esteticheskoy-kultury-vospitannikov-doshkolnyh-obrazovatelnyh-uchrezhdeniy> (дата обращения: 07.10.2022).

6. Шарипова М. Б., Сайдуллаева М. Модульное обучение в системе образования //Вестник магистратуры. – 2019. – №. 4-3. – С. 72.

7. Sharipova M. B., Marg'Uba Fazliddin Qizi Jomurodova X., IFODASI D. S. M. B. Scientific progress. 2021. № 7 //URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/xalqdostonlarida-sovchilik-marosimi-badiiy-ifodasi-alpomish-dostoni-misolda> (дата обращения: 22.12. 2021).

8. MA'NAVIY Y. A. R. V. A., O'RNI D. B. Q. E. DOI: 10.53885/edinres. 2021.17. 14.046 Sharipova Maxbuba Baxshilloyevna BuxDU //Maktabgacha ta'lim.

9. Sharipova, Maxbuba Baxshilloyevna. "Gulasal Shavkat Qizi Farmonova NIKOHDAN SO'NG ADO ETILADIGAN URF-ODATLAR TASVIRI ("ALPOMISH" DOSTONI MISOLIDA)." *Scientific progress* 7 (2021).
10. Sharipova M. B., Jalolova S. Z. Q. HOZIRGI MAISHIY TURMUSHDA O'Z O'RNIKA TO'LA EGA BO'LGAN MAROSIMLAR ("ALPOMISH" DOSTONI MISOLIDA) //*Scientific progress*. – 2021. – Т. 2. – №. 7. – С. 1114-1119.
11. Шарипова М. Б., Сайдова Д. Х. К. Методы и средства использования национальных ценностей в духовно-нравственном воспитании детей в семье //Проблемы педагогики. – 2020. – №. 3 (48). – С. 31-32.
12. Шарипова М. Б., Сайдова Д. Х. К. Методы и средства использования национальных ценностей в духовно-нравственном воспитании детей в семье //Проблемы педагогики. – 2020. – №. 3 (48). – С. 31-32.
13. Baxshilloyevna S. M. et al. MAKTABGACHA YOSHIDAGI BOLALAR MA'NAVIY DUNYOSINI BOYITISHDA "ALPOMISH" DOSTONING O'RNI //BOSHQARUV VA ETIKA QOIDALARI ONLAYN ILMIY JURNALI. – 2022. – Т. 2. – №. 2. – С. 146-152.
14. Шарипова М.Б., Хусаинова З.Х. ВОСПЕВАНИЕ НАЦИОНАЛЬНЫХ ДУХОВНЫХ ЦЕННОСТЕЙ В ГЕРОИЧЕСКОМ ЭПОСЕ // Вестник науки и образования. 2021. №16-2 (119). URL: [https://cyberleninka.ru/article/n/vospevanie-natsionalnyh-duhovnyh-tsennostey-v-geroicheskem-epose](https://cyberleninka.ru/article/n/vospевание-национальных-духовных-ценностей-в-героическом-епосе) (дата обращения: 07.10.2022).
15. Sharipova M. YOSH AVLOD RUHIY VA MA'NAVIY DUNYOSINI BOYITISHDA QAHRAMONLIK EPOSINING O'RNI: DOI: 10.53885/edinres. 2021.17. 14.046 Sharipova Maxbuba Baxshilloyevna BuxDU, Maktabgacha ta'lif kafedrasini o'qituvchisi //Научно-практическая конференция. – 2021. – С. 116-117.
16. Sharipova M. РОЛЬ ГЕРОИЧЕСКОГО ЭПОКА В ОБОГАЩЕНИИ ЖЕНСКОГО ЭСТЕТИЧЕСКОГО МЫШЛЕНИЯ //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2023. – Т. 31. – №. 31.
17. Sharipova M. "ALPOMISH" DOSTONI BADIY STRUKTURASIDA MAROSIMLARNING O'RNI //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2023. – Т. 30. – №. 30.
18. Baxshulloyevna S. M. «ALPOMISH» DOSTONI-VATANPARVARLIK FAZILATLARIDAN SABOQ BERUVCHI MA'NAVIY DURDONA //*Scientific Impulse*. – 2022. – Т. 1. – №. 4. – С. 1426-1430.
19. Sharipova M. B., Muslimova L. M. Q. XALQ DOSTONLARINI O'RGATISHNING AMALIY AHAMIYATI HAMDA DOLZARBLIGI ("ALPOMISH" DOSTONI MISOLIDA) //*Scientific progress*. – 2021. – Т. 2. – №. 7. – С. 1130-1134.
20. Sharipova M. B., Salimova K. R. Q. "ALPOMISH" DOSTONIDA "KAMPIR O'LDI" MAROSIMI TASVIRI //*Scientific progress*. – 2021. – Т. 2. – №. 7. – С. 1109-1113. Avezmurodovich Q. R. et al. "Yozuv daftari" asosida boshlang 'ich sinf o 'quvchilarining chiroyli yozish ko 'nikmasini shakllantirish usullari (1-sinf misolida) //*Scientific Impulse*. – 2022. – Т. 1. – №. 4. – С. 1312-1317.

21. Avezmurodovich Q. R. et al. BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARINING GRAMMATIKAGA OID TUSHUNCHALARINI SHAKLLANTIRISHDA TA'LIMIY O 'YINLARDAN FOYDALANISH METODIKASI //Scientific Impulse. – 2022. – Т. 1. – №. 4. – С. 1328-1335.
22. Avezmurodovich Q. R., Usmonovna S. S. CHAPAQAY O 'QUVCHILAR BILAN ISHLASH VA YOZUVGA O 'RGATISH JARAYONIDA FOYDALANADIGAN INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR (1-SINF MISOLIDA) //Scientific Impulse. – 2022. – Т. 1. – №. 4. – С. 1336-1341.
23. Qo'ldoshev R. MAKTAB O'QUVCHILARINING GRAFIK VA KALLIGRAFIK QOBILIYATLARINI SHAKLLANTIRISHNING METODOLOGIK ASOSLARI: Ushbu maqolada maktab o 'quvchilarining grafik va kalligrafik qobiliyatlarini shakllantirishning metodologik asoslari haqida gap boradi //Buxoro davlat universitetining Pedagogika instituti jurnali. – 2021. – Т. 1. – №. 1.
24. Avezmurodovich Q. R. JADID MAKTABALARIDA YARATILGAN DARSLIKLER VA ULARNING METODIK IMKONIYATLARI: Qo 'ldoshev Rustambek Avezmurodovich Buxoro davlat universiteti //Образование и инновационные исследования международный научно-методический журнал. – 2023. – №. 1. – С. 221-225.
25. Qo'ldoshev R. DARSLIK: MAZMUN VA SHAKL BIRLIGI // "ПЕДАГОГИЧЕСКАЯ АКМЕОЛОГИЯ" международный научно-методический журнал. – 2022. – Т. 1. – №. 1.
26. Qo'ldoshev R. CHAPAQAYLIK: MUAMMO YOKI QOBILIYAT //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu.uz). – 2022. – Т. 22. – №. 22.
27. Avezmurodovich Q. R., Oybekovna N. D. BOSHLANGICH SINF O'QUVCHILARINING BOG'LANISHLI NUTQINI O'STIRISH. QAYTA HIKOYALASH VA BAYON TURLARI. – 2022.
28. Qo'ldoshev R. MAKTAB O'QUVCHILARINING GRAFIK VA KALLIGRAFIK QOBILIYATLARINI SHAKLLANTIRISHNING METODOLOGIK ASOSLARI: Ushbu maqolada maktab o 'quvchilarining grafik va kalligrafik qobiliyatlarini shakllantirishning metodologik asoslari haqida gap boradi //Buxoro davlat universitetining Pedagogika instituti jurnali. – 2021. – Т. 1. – №. 1.
29. Qo'ldoshev R. Scientific theoretical basis of construction of elementary school textbooks //Buxoro davlat universitetining Pedagogika instituti jurnali. – 2022. – Т. 2. – №. 2.
30. Qo'ldoshev R. Boshlang 'ich sinf chapaqay o 'quvchilarni yozuvga o 'rgatishning nazariy asoslari //Buxoro davlat universitetining Pedagogika instituti jurnali. – 2022. – Т. 2. – №. 2.
31. Kuldoshev R. et al. Mathematical statistical analysis of attainment levels of primary left handed students based on pearson's conformity criteria //E3S Web of Conferences. – 2023. – Т. 371. – С. 05069.